

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 309 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	



HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Malikova Dilrabo Muminovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Samarqand filiali, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.f.d.
Email: dilrabo7malikova@gmail.com

Shakarova Kumush Faxriddin qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filialining magistranti
Email: kumushshakarova34@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi sharoitda bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimining institutsional mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Bank tizimida risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mijozlar ishonchini oshirish va iqtisodiyotda moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda risk-menejment tizimining tashkiliy tuzilmasi, normativ-huquqiy asoslari, ichki nazorat va audit mexanizmlari, shuningdek, Markaziy bankning nazorat funksiyalari o'rganilgan. Maqolada xalqaro tajriba asosida O'zbekiston bank tizimi uchun zamonaviy institutsional yondashuvlar, risklarni baholashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlari tahlil etilgan. Natijada, risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, risk-menejment, institutsional mexanizmlar, moliyaviy barqarorlik, ichki nazorat, huquqiy-me'yoriy asos, Markaziy bank, raqamli texnologiyalar.

Abstract. This paper provides an in-depth analysis of the institutional mechanisms of the risk management system in modern banking operations. Effective risk management plays a vital role in ensuring financial stability, enhancing customer trust, and preventing financial crises. The study examines the organizational structure of risk management, its legal and regulatory framework, internal control and audit mechanisms, as well as the supervisory role of the Central Bank. Based on international best practices, the article explores modern institutional approaches and the use of digital technologies and artificial intelligence in risk assessment. Practical recommendations for improving the institutional risk management system in banks are also proposed.

Keywords: banking system, risk management, institutional mechanisms, financial stability, internal control, regulatory framework, Central Bank, digital technologies.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены институциональные механизмы системы управления рисками в банковской деятельности в современных условиях. Эффективное управление рисками в банковской системе играет ключевую роль в обеспечении финансовой стабильности, повышении доверия клиентов и предотвращении финансовых кризисов. В исследовании анализируются организационная структура системы риск-менеджмента, нормативно-правовые основы, внутренний контроль и аудит, а также надзорная функция Центрального банка. На основе международного опыта рассмотрены современные институциональные подходы и возможности использования цифровых технологий и искусственного интеллекта в оценке рисков. В заключение предложены практические рекомендации по совершенствованию системы управления рисками.

Ключевые слова: банковская система, управление рисками, институциональные механизмы, финансовая стабильность, внутренний контроль, нормативно-правовая база, Центральный банк, цифровые технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda global moliya bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlar, geosiyosiy xavf omillarining kuchayishi, iqtisodiy inqirozlarning takrorlanishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi oldiga yangi chaqiriqlarni qo'yimoqda. Ayniqsa, risklarni boshqarishning samarali institutsional mexanizmlarini yaratish bugungi kunda bank faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Bank tizimi — bu nafaqat moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy barqarorligini ta'minlovchi strategik sektor hisoblanadi. Shu sababli, banklar faoliyatida yuzaga keladigan kredit, likvidlik, foiz, valyuta, operatsion, strategik hamda reputatsion risklarni samarali boshqarish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Risklarni boshqarish tizimi samarali ishlashi uchun uni qo'llab-quvvatlovchi institutsional asoslar — ya'ni qonunchilik bazasi, normativ-huquqiy hujjatlar, Markaziy bank nazorati, ichki nazorat va audit tizimlari, shuningdek xalqaro standartlarga mos metodologik yondashuvlar mavjud bo'lishi zarur. Aynan ushbu omillar risk-menejment tizimining institutsional poydevorini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, raqobatni kuchaytirish va risklarni boshqarish sohasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Shu sababli, bank risklarini boshqarishning institutsional asoslarini takomillashtirish, ularni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va raqamli yechimlar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimining institutsional mexanizmlari, ularning amaldagi samaradorligi, xalqaro tajriba bilan taqqoslanishi hamda O'zbekiston bank tizimi sharoitida takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimining institutsional mexanizmlari bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish strategiyalarining takomillashuvi, tartibga solish tizimining evolyutsiyasi hamda bank sektoridagi barqarorlik omillarini chuqur tahlil qiladi. Bank for International Settlements tomonidan e'lon qilinadigan hisobotlar, xususan Basel Committee on Banking Supervision materiallari, kredit riski, likvidlik riski, bozor riski va operatsion risklarni boshqarishda institutsional me'yorlarning alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Basel III talablarida kapital yetarliligi, likvidlik qoidalari va makroprudensial nazorat tizimi risklarni kamaytirishda asosiy mexanizm sifatida ko'rsatiladi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank tizimining barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarish jarayonining institutsional samaradorligi, ichki nazorat tizimlari va nazorat organlarining mustahkam vakolati muhim omil sifatida qayd etiladi. IMF Financial Stability Assessment hisobotlarida korporativ boshqaruv, mustaqil risk-komitetlari, stress-test metodologiyalari va ichki auditning sifat ko'rsatkichlari bank sektoridagi risk profiliga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Akademik adabiyotlarda ham bank risklarini boshqarish mexanizmlarining mohiyati keng yoritilgan. Frederic S. Mishkin moliyaviy institutlar barqarorligini ta'minlashda regulativ siyosat va institutlarning tizimli riskni kamaytirishdagi rolini asoslaydi. Anthony Saunders va Marcia Cornett bank risklarini boshqarish jarayonida diversifikatsiya strategiyalari, kapital strukturasini optimallashtirish va bozor intizomini kuchaytirish mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi. Xavier Freixas va Jean-Charles Rochet bank nazorati, axborot assimetriyasi, tartibga solish siyosati va risklarni baholash metodologiyalarining institutsional asoslarini ilmiy asosda yoritadi.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya bank risklarini boshqarish tizimini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Deloitte va McKinsey tomonidan chop etilgan tahlillarda sun'iy intellekt, Big Data analitikasi, real vaqt monitoringi va avtomatlashtirilgan risk-modellar institutsional mexanizmlarni kuchaytirayotgani, ayniqsa kredit scoringi, AML/CFT monitoringi va fraud-detektsiya tizimlarida samaradorlikni oshirayotgani ko'rsatiladi. Fintech sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda Raghuram Rajan va Douglas Diamond banklar faoliyatida risklarni kamaytiruvchi yangi institutsional vositalar — ochiq banking tizimi, raqamli identifikatsiya va platforma asosidagi nazorat modellarining shakllanayotganini ta'kidlaydi.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston bo'yicha ilmiy manbalarda, xususan Jahon banki va IMFning mintaqaviy hisobotlarida, bank tizimida risklarni boshqarish institutlari kapital yetarliligi, foiz stavkalari bo'yicha tavakkalchilik, likvidlik ko'rsatkichlari va makroprudensial nazoratning takomillashuvi orqali mustahkamlanayotgani ko'rsatib o'tiladi. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan e'lon qilinayotgan yillik moliyaviy barqarorlik hisobotlarida stress-testlar, risk-monitoring platformalari va regulativ talablardagi o'zgarishlar institutsional mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilayotgani yoritilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar bank faoliyatida risklarni boshqarish institutlari samaradorligini oshirish uchun kuchli regulativ baza, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan monitoring tizimlari, malakali kadrlar va shaffof korporativ boshqaruv mexanizmlarining o'zaro uyg'unlashuvi hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi — bank tizimidagi risk-menejment tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash, raqamli innovatsiyalarni joriy etish va barqaror moliyaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi — bank tizimidagi risk-menejment tizimini institutsional rivojlantirish va raqamli innovatsiyalar asosida takomillashtirishga doir ilmiy asoslarni aniqlashda tizimli, tahliliy va taqqoslama yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida empirik va iqtisodiy-statistik usullar yordamida tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari, kredit portfeli tuzilmasi hamda likvidlik darajalari tahlil qilindi. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali mutaxassislarining fikr-mulohazalari o'rganilib, xalqaro standartlar (Basel me'yorlari) bilan solishtirma tahlil olib borildi.

Olingan natijalar asosida risklarni samarali boshqarish, banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank faoliyatidagi risklar — bu qarzlarning qaytarilmasligi, likvidlik tanqisligi, foiz va valyuta kurslari o'zgarishi, operatsion va reputatsion xavflardan kelib chiqadigan salbiy moliyaviy oqibatlardir. Ushbu risklarni samarali boshqarish bank tizimining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy inqirozlarning oldini olish va mijozlar ishonchini oshirish uchun zarur.

Institutsional mexanizmlar — bu risklarni boshqarish tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy, tashkiliy va metodologik asoslar majmui. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- normativ-huquqiy baza (Qonunlar, Farmonlar, Markaziy bank qarorlari);
- Markaziy bankning nazorat va regulyatorlik funksiyalari;
- tijorat banklarida ichki nazorat va audit mexanizmlari;
- xalqaro standartlar va tavsiyalar (Basel III, ICAAP).

Institutsional mexanizmlar bank risklarini tizimli, doimiy va shaffof nazorat qilish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida risk-menejmentning normativ-huquqiy asoslari quyidagi hujjatlar bilan belgilanadi:

- "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun;
- Markaziy bank qarorlari va reglamentlari, jumladan kredit risklarini baholash va kapitallik yetarliligi bo'yicha standartlar.

Markaziy bank tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarish jarayonini nazorat qiladi, kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini monitoring qiladi hamda stress-test va scenario tahlillarini talab etadi.

Tijorat banklarida risklarni boshqarishning samarali mexanizmi sifatida ichki nazorat va audit tizimi alohida ahamiyatga ega. Bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. risklarni aniqlash va baholash jarayoni;
2. operatsion va moliyaviy xatoliklarni erta aniqlash;
3. ichki audit organlari tomonidan mustaqil tekshiruvlar o'tkazish;
4. qaror qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash.

Ichki nazorat mexanizmlari bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, firibgarlik va noto'g'ri moliyaviy qarorlar riskini kamaytirishga yordam beradi.

Bank risklarini boshqarishda xalqaro tajriba ham muhim o'rin tutadi. Basel III standartlari banklarni kapital yetarliligi, likvidlik va risk-menejment bo'yicha qat'iy talablar bilan ta'minlaydi. Shuningdek, ICAAP (Internal Capital Adequacy Assessment Process) tizimi banklarga o'z risk-profillarini baholash va strategik rejalarni shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- statistik modellar (VaR) — bozor risklarini miqdoriy baholash;
- stress-testlash va scenario tahlil — ekstremal vaziyatlarda bankning barqarorligini aniqlash;
- Monte-Karlo simulyatsiyasi — risk natijalarini ehtimollik asosida prognozlash;
- Big Data va AI texnologiyalari — kredit va operatsion risklarni real vaqt rejimida kuzatish, firibgarlikni erta aniqlash.

Ushbu yondashuvlar O'zbekiston bank tizimida risk-menejmentning samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro talablar bilan moslashishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi modernizatsiylanmoqda:

- raqamli monitoring tizimlari joriy etilmoqda;
- stress-test va scenario tahlillar amaliyotga tatbiq qilinmoqda;
- Markaziy bank nazorati orqali risklarni real vaqt rejimida kuzatish amalga oshirilmoqda;
- xodimlar malakasini oshirish va xalqaro sertifikatlash dasturlari tatbiq qilinmoqda.

Shu bilan birga, ayrim tijorat banklarida ichki nazorat mexanizmlari, raqamli platformalar va kadrlar salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli institutsional mexanizmlarni yanada mustahkamlash, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda (1-jadval).

1-jadval. Davlat banklarida kredit portfeli sifati va kredit risklari bo'yicha solishtirma tahlil (2025-yil 1-yanvar holatiga)¹

Bank nomi	Kreditlar (mlrd. so'm)	Muammoli Kreditlar (NPL) (mlrd. so'm)	NPL Ulushi (Kredit Riski)	Izoh
Biznesni rivojlantirish banki	22 735	2 085	9,2%	Eng yuqori risk. Kredit portfelinig deyarli o'ndan bir qismi muammoli.
Mikrokreditbank	17 737	1 216	6,9%	Yuqori o'rtacha risk.
Agrobank	59 605	2 890	4,8%	O'rtacha risk.
Asaka bank	39 212	1 857	4,7%	O'rtacha risk.
O'zsanoatqurilishbank	65 354	2 996	4,6%	O'rtacha risk.
Xalq banki	28 759	1 252	4,4%	O'rtacha risk.
Turon bank	12 458	402	3,2%	O'rtachadan past risk.
O'zmilliybank	107 499	3 778	3,5%	O'rtachadan past risk.
Aloqa bank	13 500	343	2,5%	Eng past risk. Kredit portfeli sifati yuqori.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, eng yuqori riskli portfel — Biznesni rivojlantirish banki (9.2%) ushbu guruhdagi eng yuqori NPL ulushiga ega. Bu bankning kredit siyosatida defolt holatlari eng ko'p uchrayotganini yoki qarzdorlarning kreditni qaytara olish qobiliyati pastligini anglatadi.

Aloqa bank (2.5%) eng past NPL ulushiga ega bo'lib, uning kredit portfeli sifati eng yuqori ekanini ko'rsatadi.

Aksariyat banklar 4.4% dan 4.8% gacha oralig'ida joylashgan (Agrobank, Asaka bank, O'zsanoatqurilishbank, Xalq banki). Bu ularning kredit risklari bir-biriga yaqinligini, ya'ni kredit berish va riskni boshqarish standartlari o'rtacha darajada ekanini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi sharoitda bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimi moliya sektori barqarorligini ta'minlash va banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, banklarda institutsional mexanizmlar — kredit riskini baholash tizimi, ichki audit, likvidlik monitoringi va kiberxavfsizlik mexanizmlari — risklarni aniqlash, nazorat qilish va minimallashtirish jarayonida samarali ishlamoqda.

Statistik tahlillar va jadval ma'lumotlariga asosanib, eng yuqori risk ko'rsatkichlari kredit portfeli va operatsion xatoliklarga bog'liq ekanini aniqlandi. Bu holat banklar uchun ichki nazorat va monitoring tizimlarini mustahkamlash dolzarb ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, institutsional mexanizmlarning samaradorligi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi, biroq kiberxavfsizlik va texnologik infratuzilmani rivojlantirish hali ham ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Natijada, banklar risklarni boshqarishda institutsional mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib, yangi global va mahalliy moliyaviy xavflarga moslashish orqali raqobatbardoshliklarini oshirishlari mumkin. Ushbu mexanizmlar banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash, mijozlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiyotga barqaror hissa qo'shish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>

1 Mualliflar tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzildi



3. "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizom, 2023-yil 18-aprel, ro'yxat raqami 3427. <https://lex.uz/docs/-6436466>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
5. Markaziy bank axborot byulleteni. (2023-yil, 2024-yil). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashriyoti.
6. Абдуллаев Ш. Х. МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ // Экономика и социум. 2016. №10 (29).
7. Глотова Ирина Ивановна, Буркот Валентин Евгеньевич, Курбанова Рукият Ахмедовна БАНКОВСКИЕ РИСКИ: ОСНОВНЫЕ ВИДЫ И МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2023. №8 (74).
8. Umarova Z. O., Kuzmina S.N. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING O'RNI // Экономика и социум. 2024. №12-1 (127).
9. Муродова D. (2025). О БАНКОВСКИХ РИСКАХ. Экономическое развитие и анализ, 3(1), 69–76.
10. Malikova D. STRATEGY FOR ENSURING BANK ECONOMIC SECURITY THROUGH RISK MANAGEMENT AND FINANCIAL STABILITY //Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. – 2025. – Т. 3. – №. 3. – С. 112-119.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100